

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
«Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi» kafedrası
“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” yo'nalishi 3- 05 guruh
talabasi**

Maftuna Turdiyevaning

RANGTASVIR

fanidan yozgan

REFERAT

Mavzu: Uy ro'zg'or buyumlaridan natyurmort ishlash

Bajardi:

Maftuna Turdiyeva

Tekshirdi:

Sh. Oydinov

Samarqand-2014

Mavzu: Uy ro'zg'or buyumlaridan natyurmort ishlash.

R e j a

Kirish:.....

1. Rangtasvir materiallari va qurollaridan natyurmort ishlashda foydalanish

2. Uy - ro'zg'or buyumlaridan natyurmort kompazitsiyasini tuzish

3. Uy ro'zg'or buyumlaridan ishlangan tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.....

Xulosa.....

Kirish

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rnini bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda.

Yoshlarda ijodiy qobiliyatlarni, ko'rish xotirasini, marom va uyg'unlik tuyg'ulari, hayotdagi va san'atdagi nafosatni kora bilish, hamda anglab yetish mahoratini, rang sezish, sezgirlik, kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurni o'stirishda, sabr toqatli va fikrni bir joyga to'plash ko'nikmasini hosil qilishda tasviriy san'atni oldiga tushadigan bironta ham o'quv predmeti topilmasa kerak. Shaxs kamolatida esa hayotda har bir shaxsning turmishdagi va kasbiy faoliyatida bunday hususiyatlar nihoyatda kerak bo'ladi. Shu bilan birga tasviriy san'at inson aql idrokining hamda uning tevarak atrofni o'rgatadi. U iqtidor va estedotni shakillanuvchi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Talaba o'quv topshiriqlarini yechishda o'zida ijodkorlikni izlaydi. U ijod qilishga avvaldan ma'lum yo'ldan borib, yechimlarni tez halqilib qo'yaqolmay, balki u yangicha, qaytarilmas yechimlar izlash orqali o'zining ijodkorlik va hayotini, me'yor va uyg'unlik sifatlarini namoyon qiladi.

Rang orqali natyurmort ishlash tasviriy san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiya, yorug'-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Tinglovchilar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Natyurmort tuzish – ijodiy ish. Unda rassomning didi va layoqati, kompozitsion madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va tasirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy ishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasim chizishga havas hissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta, kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibida kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakilli, hajmi material sirti, rangi va och to'qligi bilan farq qilishi kerak. Ammo bu farq juda keskin darajada bo'lishi ham no-o'rin. Mazmunan bir-biriga monand narsalarni tanlab olgandan keyin ulardan shunday bir yaxlit gruppaga tashkil

qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini yaratish ishtiyoqini xosil qilsin.

Natyurmort qalam va buyoqlar bilan rasm ishlashning asosiy qonunlarini o'rganishda zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun juda qulaydir. Har xil shakllarning tuzilishini tushunish, ularning harjmdorligini yorug' - soya vositasida ifodalashini bilish uchun geometrik jismlar va shakli ularga o'xshash bir qator ro'zg'or buyumlarining rasmi chiziladi. Natyurmortning peyzaj yoki intererga nisbatan afzalligi yana shundaki uni qo'yib olgandan keyin, bir necha kun joyidan qo'zg'otmasdan har xil qarash nuqtalaridan qayta - qayta tasvirlash mumkin bo'ladi. Bu esa ayniqsa o'qish, o'rganish davrida qulaydir. Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkur kuchi bilan barpo etadi. Natyurmort postanovkasi puxta, uzoq vaqt o'ylab mulohaza qilib qo'yiladi. Unga juda ko'p narsa kiritilmaydi, lekin ularning shakl va ranglari har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, harakterini o'zlashtirish san'atining boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlar vazifasini bajaradi. Lekin bu natyurmort san'at sifatida boshlang'ich vazifa bilan cheklanib qoladi, degan ma'noni bermaydi. Vaholanki, natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta izlanishlarini ham talab qiladi.

Rangtasvir materiallari va qurollaridan natyurmort ishlashda foydalanish.

Bo'lajak rassom – o'qituvchi, so'zsiz tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur malumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashi kerak. O'qituvchining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohada bilimlarini o'quvchilarga ham yetkaza olishi jarur. Shu sababli rang tasvir materiallar va qurollaridan natyurmort ishlashda foydalanish haqida fikr yuritmoqchimiz. Bu esa tasviriy san'at va amaliy san'atda rasm chizish va turli xil bezaklar bajarishda juda muhimdir.

Amaliy va tasviriy san'at sirlari nimalardan iborat? Ana shunday savollar bilan qiziquvchi yoshlar, ota-onalar oz emas. Lekin rasm chizishni barcha xoxlovchilar ham o'rganib olishlari ham mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas, bunday qiziqarli va mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga alo nur bo'ladi. Shunday qilib, rasm chizish uchun nima qilish kerak va rasm chizishni nimadan boshlash kerak? Avvalo rasm chizish uchun kerak bo'ladigan asbob,

qurol va materiallarni tayyorlab olish ish joyini jihozlash, tasvirini chizish, mo'ljallangan naturalarni tanlab olishi lozim. Rasm chizishda asosiy ifoda vositasi bo'lgan chiziqlarni chizish uchun ko'pincha turli qattqlikdagi va yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. Dastlabki mashqlar qalin va zich oq qog'ozlarda bajariladi. Qamlarning T(tvyordiy-qattiq) M(myagkiy-yumshoq) MT(myagkiy tvyordiy-o'rtacha)lar ishlatish mumkin. Bulardan yumshog'i (2M, 4M) qog'ozni kir qiladi. Qattig'i esa (2T, 3T) qog'ozga botib o'chirilganda iz qoldiradi. Qalamni ishga tayyorlash uchun uning uchini yozuvi yo'q tomonidan yaxshilab chiqarib olinadi. Qog'ozlarning ancha pishiqrog'i ya'ni chiziqlarni uchirganda uvalanmaydigan iflos bo'lmaydigani qulay. Qog'oz o'lchamini ixtiyoriy tanlash mumkin, lekin uni №11 o'lchamdan (297x210mm) kichik bo'lmasligini tavsiya qilinadi. №12 (297 x 420mm) o'lchamda bo'lsa ko'ngildagidek bo'ladi. Bulardan tashqari yumshoq o'chirg'ich, qalamtarosh qog'ozini quyib chizish uchun taxtacha, knopka kerak bo'ladi. Agar taxtacha o'rniga molbertdan foydalanilsa chizish uchun ancha o'ng'ay bo'ladi. Rassomlar rasm chizish uchun asos bo'lgan har bir obyektни odam va barcha jonivorlarni uy-ro'zg'or va texnika buyumlarini me'morchilik binolari va qurilish inshootlarini tabiat va borliqning boshqa elementlarini natura deb ataydilar. Agar naturalarni oddiy va murakkab naturalarga ajratadigan bo'lsak; geometric shakillardan iborat naturalarni prizma, piramida, konus, slindir kabi shakillardan tashkil topgan uy-ro'zg'or buyumlari bino elementlari mashina detallari va boshqalarni oddiy naturalar; naturalarda geometrik shakillarning bir-biriga kirishib buzilib yoki bioshakillarga aylanib ketishi odam va turli jonivorlar kiyim-kechak matolarning burishib turishi dropirovka va boshqa shakillar murakkab naturalar deyiladi. Rasimni naturaga qarab xotirada qolgan o'ylab xayolga keltirilgan obrazlar asosida chizish mumkin. Rasm chizishni endi o'rganuvchilar uchun eng asosiysi naturaga qarab rasm chizish maslaxat beriladi, chunki naturadan qarab chizishni yaxshi bilmay turib o'ylab ham xotira asosida ham yaxshi chizish mumkin emas.

Rasm chizish uchun naturadan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o'zrganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi.

Tabiat va turmushda uchraydigan istalgan naturaning yoki naturalar majmuasini chizish uchun tanlanishi kompazitsiya deb aytiladi va bu so'z san'at olamida juda keng manoda ishlatiladi. Oddiy natyurmort kompazitsiya oddiy naturalar yig'indisi bo'lsa murakkab natyurmort va murkkab kompazitsiyalar murakkab naturalardan tashkil topgan bo'ladi. Chizayotgan rasm risoladagidek chiqishi uchun ish joyini yaxshilab jixozlab olish kerak bo'ladi. Birinchi navbatda naturaning va chizilayotgan rasmning yaxshi yoritilishini taminlash

zarur. Naturaga to'g'ri qaragan holda o'tirish lozim. Natura detallarini chizganda qiynalib qolmaslik uchun rasm chizuvchi bilan natura oralig'i to'g'ri tanlanishi kerak. Qog'oz taxtachga yoki molbertga knopka bilan mahkamlanadi. Qog'ozning joylashishi ko'zdan 30-40 sm masofa uzoqlikda qarash yo'nalishiga kundalang bo'lishi lozim. Rasm chizish uchun kerakli narsalar taxt qilinib naturalar (natyurmort qismlari) tanlangan bo'lsada chizishni boshlashga shoshilmaslik kerak. Avvaliga qalamni to'g'ri ishlata bilishni o'rganish rasmda asosiy ma'no va ifodani ochib beruvchi chiziqlar to'g'risida qisqacha ma'lumot olish natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tanlay bilishni o'rganish tavsiya etiladi. Rasm chizishda chiziq va chiziqcha (shtrix)lar asosan qalamni ikki xil usulda ishlatish bilan bajariladi. Yengil va nozik chiziqlar bilan naturaning homaki konturi chizgisi qalamni yana ham qiyshaytirib (10^0 - 20^0) qalin yengil chiziqchalar bilan esa soyalar ikkinchi plandagi tekisliklar bajariladi. Qalamni qariyb to'g'ri burchak ostida tutilib aniqlangan. Shakllar chiziqchalar esa kalta ingichka aniq chiziqlar bilan beriladi. Rasm chizishda qay usulni qo'llansa ham qalamni qo'lda qattiq ushlamasdan bo'sh erkin holda ishlatish kerak. Mahorat oshgan sayin qalamni tutish va ishlatish ham sayqal topa boradi. Chiziq qalam bo'r va boshqa shu kabilarning qog'oz yoki boshqa materialdan yurishidan hosil bo'lgan izdir. O'rniga quyib ishlatilgan chiziqchalar esa sekin asta naturaning qog'ozdagi aksiga aylana boradi. Naturaning to'liq tasviri hosil bo'lganicha ish shu yusinda davom etib boradi. Qog'oz varag'iga natyurmortni to'g'ri kompanovka qilishda shablon ramkadan foydalanilsa bo'ladi. Buning uchun qog'oz varag'i o'lchami nisbatlarini saqlagan holda kichik (ko'pincha taxminan konvert yoki gugurt qo'tisi o'lchamlariga o'xshash) karton qog'ozga o'lcham moduli yasab olinadi. Bu modulda ichki ramka o'rniga teshik ochiladi. Bu shablon ramkani ko'zga yaqinlashtira borib kompanovkani tez va soz topish mumkin. Shablon ramka tabiatga qarab kompozitsiya izlashda ham qo'l keladi.

Tarixiy me'morchilik obidalarini tasvirlashda kerakli o'quv qururlari va ulardan foydalanishda akvarel bo'yog'ini ham o'z o'rnini bor. Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rnini, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko'p ma'naviyat xazinalarini qoldirib bo'yoqlarning akvarel, guash, tempera va moybo'yoq turlari mavjud. Bo'yoqlar, «akvarel» lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, «akvarelda ishlangan rasm» degan ma'noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan. XIX asrda akvarelda yirik san'at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi.

D.Kozens, Turner, D.Konstabel, R.Bonington, T.Gertin kabi rassomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini mohirlik bilan ishlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVIII asrdan boshlab keng yoyila boshlandi.

O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropada ham akvareldan cherkovga qarashli bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illustratsiyalar bilan bezashda foydalaniladi. Lekin, u vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilar edi.

O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llaniladi. O'rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatura hamda illustratsiyalar ishlashda shuhrat qozondi.

Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning (bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bogiovchi moddalar asosan, gummiarabik, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, dekstrinlar miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning, dekstrinning suvdagi eritmasi, meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval, shiraning hamda dekstrinning suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Meva shakari suv bilan aralashtirilib, siropsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birlikda to'xtovsiz aralashtiriladi hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenoldan kerakli tomiziladi. Chinni idishlardagi — yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda olinib, meva shakari o'rniga asalari mumi va glitserin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi elementning ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glitserin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonda uchraydigan pigmentlardan (masalan, jigarrang, karmili bo'yoqlardan) tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va

tayyorlashda ulaming tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, quyidagi bo'yoq kukunlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

Jigarrangli kukunlar: kuydirilgan jigarrang, jigarrang mars, qora kukunlar uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erisa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan hisoblanadi.

Shuni esda tutish lozimki, quyilgan akvarel bo'yog'i quriganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib, ochlashadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'oz- ga singishi ta'sir etadi.

Akvarel bo'yoqlarida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lib, unga amal qilinmasa tayyorlangan ishlarning sifatiga putur yetishi mumkin. Biz akvarel bo'yog'ida biror naqshni yoki bezakni bo'yashimizdan oldin, uning chiziqli tasvirini tayyorlab olamiz. So'ng, bo'yashga o'tamiz.

Mo'yqalamda bo'yoq olinayotganda uni haddan tashqari qattiq ishqalash mumkin emas. Aks holda mo'yqalam yedirilib ketishi mumkin. Olingan bo'yoq qavati qog'oz sirtiga yupqa qavat tarzida surtilishi lozim. Agar bo'yoq qavati haddan tashqari quyuq bo'lsa, qog'oz sirti ko'rinmay qoladi va akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi. Lekin, akvarelda naqshlar va bezaklarni bo'yayotganda bu tartibga boshqacharoq tarzda rioya qilinadi. Naqshlar va bezaklarda bo'yoqlarning turli-tuman tuslaridan ham foydalaniladigan bo'lganligi sababli, ularning tuslarini ko'proq yoki kamroq surtish orqali ochlashtirish yoki to'qlash. Chunki, bo'yoqlarning juda och tuslarini hosil qilishdaguashning oq bo'yog'i ham qo'shib ishlatiladi. Demak, o'z-o'zidan mazkur bo'yoq aralashgan rang tuslari yuzaga qalin qoplam bo'lib yotadi.

Akvarelda naqsh yoki bezak ishlanayotganda rang tuslarining toza bo'lishiga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Bir bo'yoq olinganidan so'ng ikkinchi xil bo'yoq olinishidan oldin, mo'yqalam tozalab yuvib tashlanadi. Shunday qilinsa, bo'yoq tuslari toza va chiroyli ko'rinishda bo'ladi.

Guash italyancha — suvli bo'yoq degan ma'noni bildiradi. Kukun bilan suv yelim bogiovchilari, ya'ni aqoqiy, bug'doy kraxmali, dekstrin va boshqalar hamda oq bo'yoq (belila) aralashmasidan iborat bo'yoq. Qog'oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh, tasvir

ishlashda qo'llaniladi. Guash bo'yog'idan o'rta asrlardayoq Osiyo va Yevropaning ko'p mamlakatlarida, asosan, kitob miniaturasidan foydalanib kelingan. XIX asr o'rtalaridan guash bo'yoq sanoatida ishlab chiqarila boshlagach, mustaqil usulga aylanadi. Guash akvareldan oq bo'yoq qo'shilganligi, bo'yoq qatlamining qalinligi va bo'yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Hozirda guash plakat, amaliy , grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi.

Guash bo'yog'i quyuq ko'rinishda bo'ladi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyiladi. Guash bo'yog'ida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavatining bir tekisda to'la berkitadigan bo'lishi kerak. Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo'yog'ini tayyorlashda bo'yoq kukunlaridan foydalaniladi. Guash bo'yog'ida akvarel mo'yqalamlari va ulardan biroz qattiqroq mo'yqalamlar hamda moy bo'yoqlari uchun chiqarilgan mo'yqalamlardan ham foydalaniladi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarida alohida emulsiyalardan tayyorlangan guash bo'yoqlar ishlatiladi. U esa o'zining tiniqligi, rangining chiroyliligi bilan farqlanadi. Guashning flyuoressensiyali guash deb ataladigan turi ham bo'ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan aralashtirib ishlatilsa ham bo'ladi. Flyuoressensiyali guash o'zining chiroyliligi, tekisligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Umuman, guash bo'yoqlari rasmlar, naqshlar har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi.

Guash bo'yog'ida ishlashda ham ana shu tartiblarga rioya qilinsa-da, uning tuslari yuzaga o'ta qalin bo'lib qoplanishi bilan farq qiladi. Buni unutmaslik lozim-ki, guash bo'yoqlarining tarkibida oq bo'yoq moddasi mavjud bo'lganligi sababli uning tuslari keyinchalik ochlashib ketadi. Shunga ko'ra olinadigan rang tuslari belgilangan darajadan ancha to'qroq tuslarda bo'lishi lozim. Aks holda bo'yoq qavati ho'lligida to'q bo'lgan rang tuslari keyinchalik ochlashib ketadi va ko'rinishini buzadi.

Guash bo'yog'ida ishlangan naqshlar va bezaklar rang tuslarining ancha xiraligi bilan akvareldan farq qiladi. Ular ana shu xarakterli xususiyatlardan kelib chiqqan holda ko'pincha aralashtirib ishlatiladi. Guash bo'yog'i quyuqligi jihatidan moybo'yoqlarga o'xshab ketsa-da, lekin, faqat qog'ozlar sirtigagina bezaklar ishlash mumkin bo'ladi. Ba'zi

hollarda guash bo'yog'idan miniatura ishlashda, qutichalar sirtini bezash va lok bilan qoplash orqali foydalaniladi.

Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchilaridan dekstrin, glitserin va boshqalar hisoblanadi.

Kraxmal yelimining asosiy turli dekstrindir. Dekstrin kraxmalni yoki suyuq kraxmalni qayta ishlash yo'li bilan olinadi.

Uning oq va sariq tuslilari bo'ladi. Oq tusli dekstrin faqat qizdirilganda suvda eriydi, hamda soviganda bo'tqasimon ko'rinishga ega bo'ladi. Sariq rangli dekstrin sovuq suvda oson erib, dekstrin yelimini hosil qiladi.

Glitserinning vazifasi shundaki, u guashni tez qurib qotib qolishining oldini oladi.

Guash bo'yog'ini tayyorlashda akvarel uchun ishlatiladigan bo'yoq kukunlaridan foydalaniladi. Oq bo'yoq esa rang tuslariga qarab ma'lum miqdorda qo'shiladi. Shuningdek, ularning tarkibini mustahkamlash uchun kaolin va blanfikslardan foydalaniladi. Oq bo'yoqlarning qo'rg'oshinli, titanli, baritli, sinkli tuslari mavjud. Guash bo'yoqlari uchun emulsiya tayyorlashda suv, bug'doy kraxmali, nowot suvi, olcha shirasi, glitserin, ho'kiz o'ti, fenol kabi moddalar kerak bo'ladi.

Badiiy bezakli tasvirlar ishlashda guashning bog'lovchi emulsiyasi boshqacha tartibda tayyorlanadi. Bunda kraxmal yelimi bog'lovchi element hisoblanadi..

Tiniq tusdagi guash bo'yoqlarini tayyorlashda duradgorlik yelimi, bug'doy kraxmali, suv, natriy ishqori kabi moddalardan foydalaniladi.

Duradgorlik yelimini esa oldindan tayyorlangan kraxmal yelimiga aralashtirish tavsiya etiladi.

Guash bo'yog'ini tayyorlashda bog'lovchi emulsiyaga bo'yoq kukuni va oq bo'yoq qo'shiladi hamda yaxshilab iylanadi. Bo'yoqlarni tayyorlashda maxsus apparatdan yoki hovonchadan foydalanish mumkin. Aralashma quyuv qaymoq ko'rinishiga kelguncha ishlanadi. Qolgan ishlar odatdagicha bajariladi. Guash bo'yoqlarining hammasiga bir xil tarkibli bog'lovchi emulsiyani qo'llash qiyin. Shuning uchun kerakli rang tuslarini hosil qilishda biror elementni ko'proq yoki ozroq olishga to'g'ri keladi¹.

Guash bo'yoqlari bilan ishlashda akvarel, tempera va moybo'yoqlari uchun qo'llaniladigan uslublardan foydalaniladi. Naqsh ishlashda, rang tuslarini har xil

ko'rinishini hosil qilishda suvni ko'p qo'shib yuborilsa o'zini xususiyatini o'zgartirib, bo'yalayotgan yuza tekis chiqmay, ola-bula chiqadi.

Agar guash qurib, qotib qolgan bo'lsa, ustiga iliq suv, suyuq duradgorlik yelimi yoki PVA bo'yog'i qo'shiladi. Ikki yoki uch kun o'tgandan so'ng guash yaxshilab aralashtiriladi. Guash qumoq-qumoq bo'lib qolgan bo'lsa uni dokadan yoki kapron paypoqdan o'tkazib olish kerak. Guashga duradgorlik yelimi yoki PVA qo'shilishi sababi, u uning tarkibini mustahkamlaydi. Yana ishchi yuzani bo'yalgan joyi qo'lga yuqmaydigan bo'ladi.

Ish jarayonida guash idishlaridan oddiy tayoqcha yoki maxsus oddiy kurakchalardan foydalaniladi. Shu kurakchalar yordamida bo'yoqlar olinadi. Har bir guash bo'yoq rangiga alohida kurakcha ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Guash bo'yog'ini ishlatishda akvarel, mo'yqalam va maxsus guash bo'yog'i uchun akvarel mo'yqalamidan qattiqroq mo'yqalamlar ishlatiladi. Ko'pincha guash bo'yog'i uchun ishlab chiqarilgan yumshoq yoki yapaloq mo'yqalamlar ishlatib kelinadi. Naqqoshlikda oq rang, limonli sariq, qadmiyli sariq, stronsiyli sariq, tillarang oxra, qizil rang, alvon rang, qirmizi, zumrad, sovuq tusli yashil, to'q zangori, havorang, qora rang va boshqalar ko'p ishlatiladi.

Guash bo'yog'ida bezalgan buyumlarning ustidan lok surkab, qoplanadi. Surtirilgan lok hisobida naqshlarning rangi oz miqdorda to'qlashadi. Shu to'qlashish hisobini har doim esdan chiqarmaslik lozim.

Tempera iotincha temperare (temperari) so'zidan olingan bo'lib, aralashtirish degan ma'noni anglatadi.

Tempera ham suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar turkumiga kiradi.

Qadimgi Rusda XVIII asrgacha tempera stanokli hamda monumental rassomchilikning eng yaxshi materiali bo'lib keldi. X asrdan boshlab rus rassomlari o'zlarining ajoyib asarlarini temperada ishlaganlar. Ular asrlar davomida tempera ishlash usullarini rivojlantirib keldilar. Ayniqsa, tuxum sarig'idan tayyorlangan temperada ishlash Andrey Rublyov ijodining asosiy qismini tashkil etadi. Rossiyada tempera bilan rangli tasvir ishlash XVIII asrning ikkinchi yarmigacha rivojlandi va asta-sekin uning o'mini moybo'yoqda ishlash san'ati egallay boshladi. Tempera yordamida devorlarga rangli tasvir ishlash faqatgina G'arbiy Yevropadagina emas, balki Vizantiya va Rossiyada ham keng tarqalgan edi.

Hozir Moskvada, Kostroma va Yaroslavl'dagi bir qancha cherkovlarda XV, XVI va XVII asrlarda tempera bilan ishlangan rangli tasvirlar saqlanmoqda, oradan qanchadan-qancha vaqt o'tganiga qaramasdan, ularning ko'pchiligining rangi hali ham o'zgarmagan. G'arbiy Yevropada XIX asrda yana devorlar va shiftlarga temperada rangli tasvir chizishga kirishilib, bu borada anchagina zamonaviy metod va usullar qo'llanila boshlagan edi.

Hozir esa temperaga bo'lgan qiziqish yanada oshdi. Bunga sabab temperaning namga, harorat va tashqi muhit o'zgarishlariga chidamliligidir. Lekin, uning kamchiligi shundaki, qo'yilgan bo'yoq qavatli haddan tashqari qurib ketsa, qattiqroq bosilganda yoki turtilganda gruntidan tushib ketishi mumkin.

Tempera ikki qismdan: bog'lovchi element bo'lmish tabiiy yoki sun'iy moddadan va bo'yoq moddasidan tashkil topadi. Bog'lovchi elementlar emulsiyasining tarkibiga qarab sariqli tempera (tuxum sarig'i qo'shilgan tempera), oqli tempera (tuxum oqi qo'shilgan tempera), butun tuxum qo'shilgan tempera, moytuxumli tempera, kazeinli tempera va boshqa turlarga bo'linadi. Temperaning bu turlari bir-birlaridan faqat bog'lovchi elementlarining tarkibi bilangina emas, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Sariqli tempera ikki qismdan: bog'lovchi emulsiya va bo'yoq moddasidan iborat. Temperaning bu turi juda qadim zamondan ma'lum. Bog'lovchi modda sifatida tuxum sarig'i olinadi hamda unga ta'sirchanligini ma'lum darajada oshirish uchun sirkali nondan tayyorlangan kvas qo'shiladi.

Emulsiya tayyorlash uchun tovuq tuxumi olinadi va ehtiyotlik bilan bir chetidan sindiriladi. Uning oqsil moddasini alohida idishga olish lozim. Tuxum sarig'ining qoplamasi igna yoki birorta o'tkir asbob bilan tilinadi va kerakli idishga oqiziladi. So'ngra sariq moddaning hajmiga teng miqdorda suv quyib, tayoqcha bilan aralashtiriladi hamda sirkaning suvdagi eritmasidan 5-6 tomchi tomiziladi.

Emulsiya, natijada, tezda quyilib qolmaydigan bo'ladi. Shu bilan emulsiyani tayyorlash nihoyasiga yetkaziladi.

Bo'yoq moddasini emulsiyaga aralashtirishdan oldin unga ma'lum darajada qayta ishlov berish tavsiya etiladi. Chunki, bo'yoq tarkibida har xil begona elementlar bo'iishi mumkin. Ularni yo'qotish usuli quyidagicha: bo'yoq kukuni tosh plita ustiga sepiladi hamda xamirsimon massa hosil bo'lguncha suv qo'shilib, temir kurakcha bilan yaxshilab

aralashtiriladi. So'ngra maxsus dasta-tuygich yordamida tosh plita ustida aylanasiimon harakat yordamida yaxshilab ishqalanadi. Bo'yoqning nami qochmasligi uchun unga oz-ozdan suv quyib turiladi. Bo'yoq moddasining tarkibida hech qanday donador, yirik zarrachalar bo'lmasligi lozim.

Bo'yoq moddasini tayyorlashga 1 -2 soat kifoya qiladi. Ishqalab tayyorlangan bo'yoq kukuni kurakcha yordamida plita ustidan yig'ishtirib olinadi va quritish uchun konussimon shaklda bir yerga to'planadi. Kukun quriganidan so'ng maxsus qopchalarga solib qo'yiladi. Qopchalarni polietilendan kerakli oichamda yasab olish mumkin. Shuningdek, qopchalarning zavodlarda chiqariladigan turlaridan foydalansa ham bo'ladi.

Sariqli tempera quyidagicha tayyorlanadi: chinni idishga oqi bo'yalmagan sopol idishga kerakli tusdagi poroshok sepiladi. Ustiga ozroq emulsiya quyilib, ko'rsatkich oqi o'rta barmoq bilan yaxshilab ishqalanadi. Rangli tasvir ishlash tamom bo'lganidan so'ng bo'yoq qotib qolmasligi uchun unga ozroq suv solib qo'yiladi. Kerak paytda so'ng to'kib tashlanib, ozroq emulsiya aralashtiriladi. Tayyor bo'yoq bir haftagacha buzilmaydi. Temperaning qurishi moyli bo'yoqlarning qurishidan keskin farq qiladi. Rangli tasvirdagi bo'yoq qavati tarkibidagi suv bug'lanib ketganidan so'ng, tempera sirti nafis parda bilan qoplanadi va quyuqlanadi.

Oqli tempera ham xuddi sariqli tempera kabi tayyorlanadi.

Oqli temperaning xossalari ham sariqli temperanikidan qolishmaydi. Lekin, u tashqi muhitga unchalik mos emas. Qurigandan so'ng sirtida mo'rt qavat hosil bo'ladi. Bu temperadan ko'proq qog'oz, karton va shu kabi lok hamda alif bilan qoplanmaydigan sirtlarni bo'yashda, bezatishda foydalaniladi.

Butun tuxum qo'shib tayyorlangan tempera uchun bog'lovchi sifatida tuxumning sariq va oqsilining suvdagi eritmasi olinadi. Tuxumning oqsil hamda sariq moddasi o'z hajmiga teng miqdordagi suv bilan kurakcha yordamida aralashtiriladi. So'ng mustahkamligini oshirish uchun kerakli miqdorda fenol qo'shiladi. Emulsiya hosil qilib bo'lingach, unga tempera bo'yoq kukuni solinib, bir zaylda aralashtiriladi.

Bu tempera ham o'zining pishiqligi va rang-barangligi bilan sariqli temperadan qolishmaydn. Undan katta hajmdagi va uzoq saqlanmaydigan dekorativ pannolar, bezaklar ishlashda foydalaniladi.

Moytuxumli tempera chun bog'lovchi emulsiya butun boshli tuxumdan, zig'ir moyi, paxta moyi va suvdan tayyorlanadi. Emulsiya tayyorlash uchun tuxumning oqi va sarig'i yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra moydan, oqi moyli lokdan ma'lum miqdorda qo'shiladi va muntazam aralashtirib turiladi. Emulsiya tayyor bo'lgandan so'ng ham aralashtirish davom ettiriladi va uni mustahkamlash maqsadida formalinning kuchsiz eritmasi quyiladi. Emulsiya tayyorlashda tuxum oqsili va sarig'ining aralashmasi ko'p olinsa, bo'yoqning rangi yomonlashadi va ayrim hollarda ko'chib tushadi. Moylar va moyli loklar ortiqcha olinganda esa quyilgan bo'yoq qavatida xunuk ko'rinish hosil bo'ladi. Bu temperadan faqatgina gruntlangan yuzalarni bezashda foydalanish mumkin.

Kazeinli tempera. Kazein moyli — emulsiya va bo'yoq kukunidan tayyorlanadi. Kazein yelimi quruq kazein kukunini nashatir spirti eritmasiga aralashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Kazein kukuni idishga issiq suv bilan birga solinadi va u suvni yaxshilab shimib olguniga qadar ikki soat o'tadi. Keyin ozroq qizdirilgan nashatir spirtini kazein erib ketguncha qo'shib aralashtirib turiladi.

Emulsiya tayyorlash uchun tayyor kazein yelimiga teng miqdorda zig'ir moyi asta-sekin quyiladi va har ikkalasi qo'shib ketguncha beto'xtov aralashtirib turiladi. Kerakli quyuqlikdagi emulsiyani hosil qilishda suvdan foydalaniladi. Kazeinli emulsiyada kazein yelimining qayta tayyorlangan aralashmasi ishlatiladi. Chunki, oldin tayyorlangan eritma o'zining xossasini o'zgartirishi mumkin. Kazayin –moyli emulsiyani doimo yangilab turish tavsiya etiladi. Kazayin moyli tempera esa odatdagicha tayyorlanadi.

Kazeinli temperalartez quriydi va qattiqlashib, suvda erimaydigan bo'lib qoladi, gruntlangan sirtlarga juda yaxshi surtiladi, qurigandan keyin ko'chib ketmaydi. Eskirgan kazein yelimi yoki emulsiyasidan tayyorlangan bo'yoqlarda buning aksi bo'lishi mumkin.

Shirali tempiralarda olcha daraxtining shirasi bog'lovchi element sifatida ishlatiladi. Bu shira daraxt tanasining u yer, bu yeridan sizib chiqadi. Uning Ko'rinishi sarg'ish, qizg'ish, jigarrang, to'q jigarrang yoki qoramtir jigarranglarda bo'ladi. Bunday shirani sun'iy yo'l bilan ham olish mumkin. Buning uchun daraxt tanasi bir necha yeridan tilib qo'yilishi kerak. Shunda ma'lum vaqt o'tganidan keyin shira hosil bo'laveradi.

Bahorda yig'ilgan shiralar suvda tez eriydi. Yozda va kuzda yig'ilgan shiralarning erishi biroz qiyin bo'lgani uchun og'zi yopiladigan idishga solinib, issiq pechkaning yaqiniga bir necha kun qo'yib qo'yiladi. Shundan keyin ularning suvda erish bilan birga mustahkamlanish xususiyati kuchayib ketadi.

Och tusdagi shiralardan tiniq tusdagi tempera bo'yog'i hosil bo'ladi. To'q ranglarni topishda esa jigarrang tusdagi shiralardan foydalaniladi.

Shirali temperani tayyorlashda maxsus hovonchadan foydalaniladi. Bu temperaning xossalari ham boshqa temperalarnikiga o'xshash bo'ladi. Lekin, ancha suyuq bo'lganligi uchun moybo'yoq gruntlangan sirtlarda yaxshi yotmaydi. Shuningdek, uni yozuv ishlarida qo'llab bo'lmaydi. Shirali temperaning ijobiy tomoni, u bilan lessirovka usulida ishlash juda qulaydir. Rang tuslari esa tiniq ko'rinishda bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan farq qilib turadi.

Temperalar odatda, sanoat usuli bilan kichik va katta tyubiklarda ishlab chiqariladi. Ularni uzoq vaqt saqlashga to'g'ri kelsa, quyosh nuri tushmaydigan salqinroq joylarga qo'yish tavsiya etiladi.

Moybo'yoq bo'yoqlarning bir turi bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Moybo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilib olish zarur.

Moybo'yoqlar bilan ishlashni puxta bilgan talaba tasvirlash tilining o'ziga xos tomonlarini bilib oladi. Moybo'yoq turlari 6-jadvalda berilgan.

Moybo'yoq va loklar XV asrdan boshlab ishlatib kelinadi. Rangtasvirda qo'llanishini esa niderlandiyalik aka-uka rassom Van Deyklar boshlab berganlar. Ular zig'ir moyi juda tez qotishini bilib qolganlar va keyinchalik bo'yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va yorqin bo'yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo'lganlar. Ular moybo'yoq texnikasini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shganlar.

XVI asr rangtasvir san'atida moybo'yoq rangtasviri asosiy o'rinni egallagan. Moybo'yoq bilan ishlash 1920-yillardan so'ng rivojlana boshladi. Keyingi vaqtlarda moybo'yoq bilan tasvir ishlash keng miqyosda tarqaldi. Moybo'yoq uncha suyuq bo'lmagani uchun, akvarel kabi mo'yqalamdan va tasvir tekisligi yuzasidan oqib ketmaydi. Uning asta-sekin qurish xususiyati esa matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq birikmasiga ancha uzoq vaqt mobaynida ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Moybo'yoqlarni ishlatish akvarel bo'yoqlarga nisbatan qulaydir. Ularning yana qulayligi shundaki, mabodo rang tusi noto'g'ri topilgan bo'lsa, uni qaytadan ishlash imkoniyati bor. Moybo'yoq matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq qurigach, o'zining dastlabki rangini o'zgartirmaydi. Akvarel yoki guash bo'yoqlari kabi oqarmaydi.

Moybo'yoq suyuq va quyuqroq holda, yupqa tiniq qatlam tarzida yoki quyuq holda ishlatilishi mumkin. Lekin, boshqa bo'yoqlarga, ya'ni akvarel, guash va hokazoga nisbatan moybo'yoqni ishlatish uchun zarur jihozlar ancha murakkab.

Moybo'yoqlarni ishlatishda ularni suyultirish uchun erituvchi moddalardan foydalaniladi. Buning uchun maxsus tayyorlangan erituvchilar — penin, 1 va 2 raqamli suyultirgich lok Moyli bo'yoqlar yordamida ishlangan tasviriy san'at asarlari uzoq yillar davomida saqlanadi va kishilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moybo'yoqlar bilan ishlaganda ularning ba'zi birlari xolostga yaxshi, ba'zi birlari esa yomon surkaladi. Bo'yoq yupqa surkalganda, tak qismida bo'yoq ko'rinib turadi, bunda rang yorqinligi paydo bo'ladi, yupqa surtilgan bo'yoq lessirovka deyiladi.

Lessirovka usulida ishlanadigan ishning sifatli chiqishi uchun, albatta, holostni odattagicha gruntlash kerak. Rangtasvir asarlarining mustaxkamligi va uzoq saqlanishi gruntlarning sifatiga bogliqdir. Sifatsiz gurunt asarning tez orada yorilib ketishiga, bo'yoqlarning ko'chib ketishiga asosiy sababchi bo'ladi. Gruntni o'zi tayyorlaydigan rassomlar ularni tayyorlash qoidalariga katta e'tibor berishlari kerak.

Uy-ro'zg'or buyumlaridan natyurmort kompozitsiyasini tuzish.

Natyurmort janri – fransuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar, asbob – uskunalar kabilarga o'xshash namunalarning tasviri aniq bir mazmunni, ma'noni beradigan tasviriy san'at janridir. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, harakterini o'zlashtirish san'atining boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlar vazifasini bajaradi. Lekin bu natyurmort san'at sifatida boshlang'ich vazifa bilan cheklanib qoladi, degan ma'noni bermaydi. Vaholanki, natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta izlanishlarini ham talab qiladi.

“Natyurmort – mustaqil janr bo'lishi bilan birga, tematik suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishda ko'maklashuvchi, uni to'ldiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi”. Tasviriy san'at tarixida Vilyam Klas Xeda, Jan - Batist, - Simon Sharden, Frans Cnayders, Yan Van Geysum, Rahim Ahmedov, Javlon Umarbekov, Akmal Ikromjonov va boshqa shularga o'xshash natyurmort san'atining mohir ustalari mavjud.

Natyurmort tuzish – ijodiy ish. Unda rassomning didi va layoqati , kompozision madaniati namoyon bo'ladi. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi.

Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va tasirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy ishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasim chizishga havas hissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta, kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibida kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakilli, hajmi material sirti, rangi va och to'qligi bilan farq qilishi kerak. Ammo bu farq juda keskin darajada bo'lishi ham no-o'rin. Masalan, katta chelak yoniga qo'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilg'amaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi.

Tanlab olingan narsalarni pretmet tekisligida bir-biriga va fonga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga tasir etadi. Mashhur rassom pedagog B.Ioganson mohir mo'yqalam sohibi Shardenning "piyozli natyurmort"ini ko'rib, mazkur natyurmortning yaratilishini tasavvur qilib, quydagi fikrni bayon etadi. Aytaylik, SHarden oshxonaga kirganida ko'zi stol ustidagi ko'k piyoz boshlariga tushgan – u, piyozning cho'ziq shakli va nafis rangi uning diqqatini jalb, qilib qiziqtirib qolgan. Huddi shu narsa surat kompozitsiyasining cho'ziq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Shakli jihatdan unga zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan har xil byumlarni mis qozon, spol va shisha idishlarni tanlagan. Rassom aytaylab shakli, o'lchami, material bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatning o'ziga, undagi narsalarning rang-barang va turli - tumanligiga qiyoso qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmuni jihatdan jusa sodda ko'rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechtasini olgan xolos. Mazmunan bir-biriga monand narsalarni tanlab olgandan keyin ulardan shunday bir yaxlit gruppaga tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini yaratish ishtiyoqini xosil qilsin.

Sharden natyurmort tuzish uchun tanlangan narsalar – mis qozon, sopol cho'mich yashil rang shisha idishi, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxum. Bular hammasi ham oshxona ashyolari bo'lib, shakillari, tuzilishlari, sirlari va ranglari har xil. Aytaylaylik, rassom natyurmortni faqat qozoncha va qttiqlik shishadan tuzsa qiziqarli bo'lamidi? Yo'q, albatta. Yana beixtiyor, narsalar tasodifan shunday holatda joylashgami yoki Sharden ularni ongli ravishda shu tartibda qo'yganmikan, degan savol tug'ladi. Bu savolga javob topish uchun qo'yilgan natyurmortning qanchalik tabiiyligini tushunishga harakat qilib ko'ramiz. Ikkita - uchta narsadan ham natyurmort tuzish mumkinmi?

Odatda, rasm chizishga o'rganish mashg'ulotlari natyurmort ishlashdan boshlanadi. Chunki natyurmort qalam va buyoqlar bilan rasm ishlashning asosiy qonunlarini o'rganishda zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun juda qulaydir. Har xil shakllarning tuzilishini tushunish,

ularning harjmdorligini yorug' - soya vositasida ifodalashini bilish uchun geometrik jismlar va shakli ularga o'xshash bir qator ro'zg'or buyumlarining rasmi chiziladi. Natiurmortning peyzaj yoki intererga nisbatan afzalligi yana shundaki uni qo'yib olgandan keyin, bir necha kun joyidan qo'zg'otmasdan har xil qarash nuqtalaridan qayta - qayta tasvirlash mumkin bo'ladi. Bu esa ayniqsa o'qish, o'rganish davrida qulaydir. Natiurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkur kuchi bilan barpo etadi.

O'quv natiurmortining kompozitsiyasi, bir tomondan, estiteka talablariga, ikkinchi tomonidan ta'limning didaktik talablariga javob berishi kerak.

Natiurmort postanovkasi puxta, uzoq vaqt o'ylab mulohaza qilib qo'yiladi. Unga juda ko'p narsa kiritilmaydi, lekin ularning shakl va ranglari har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak. Bitta postanovkada sirtlari har xil narsalarning, masalan, chinni yoki sopol idish, metal yoki yog'och buyum, har xil rangli sidirg'a gazlamalarining kiritilishi asar mazmunini boyitadi va qiziqarli qiladi. Silliq, yaltiroq sirtli idishni sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma – yon qo'yilsa, ularni taqqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'uladi.

Natiurmortda asosiy talablardan biri narsa o'lcham, rang va ton jihatidan ajralib turishi hamda sur'at tekisligining markaziga yaqin joyda qo'yilishidir. Bu surat mazmunini ochishda so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rtirib ko'rsatib turadi. Lekin u albatta surat tekisligining o'rtasida turishi shart emas. Unda postanovka zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo'yadilar muvozanatni saqlash uchun qarama – qarshi tomonda rangi va och to'qligi unda zid bo'lgan predmet oladilar. Atoqli natiurmort navislar Sezan, Sharden, Hruskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar. Bir xil narsalardan bir necha ko'rinishda natiurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal xam hajmlarning katta kichikligi va bo'laklarning och to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natiurmortda bir necha teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi. Unda natiurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natiurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u ma'nodor tuyuladi. Natiurmortni o'rnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma'qul bo'lmasa yana qayta qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo bo'gunga qadar davom ettirish kerak.

O'quv natiurmortining muhim tomonlaridan bir tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Postanovkaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda maydalari oldinroqda,

biri ikkinchisi va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham ko'rinib turgani ma'qul. Shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir biriga bog'lash maqsadida unga chuziqroq shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompazitsiya markaziga qaratib quyilgan pichiq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan "kalit" bo'lib tomoshabin nigohini kompazitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. U shakli rang va toni bilan ajralib ko'rinib, kompazitsiya markazini tashkil qilishi kerak. Qolgan narsalar birinchi va orqa planlarda joylashtiriladi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan ammo yorqin narsa qo'yiladi. Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki ko'z ko'rigidan pastroqqa quyilgan natyurmort yotiq predmet tekisligidan to'la to'kis ko'rinib turadi. Narsalarning asoslari ularning o'zaro joylanishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qo'lay bo'ladi.

Masalan ko'za va olma yoki choy idish va kosacha olib shunday joylashtiramizki ular ko'rish maydonidan muvozanatli holatda ko'rinsin. Alohida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval albatta natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash kerak bo'ladi. Aytaylik bu devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatda stol sathi bilan (yotiq tekislik) uning orqasidagi devor (tik tekislik) orasidagi nisbat aniqlanadi. Shundan so'ng natyurmortni o'rnatga bo'ladi.

Ishni eng yirik narsani qo'yishdan boshlaymiz. Natyurmortning atrofidagi qismini xayolan chegaralab, choy idishni markazdan o'ng tomonga, bir oz siljitib quyib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan choy idish e'tiborini o'ziga jalb qilishi bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam bermoqda. Endi likobcha ustidagi kosachaning o'rnini toppish ham ancha oson bo'ladi. Uni choy idishga yaqin joyga - markazdan chaproqqa surib shunday masofada joylashtirish zarurki ular o'rtasidagi bog'lanish sezilib tursin. Endi, garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsada, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinmayapti, va vaholanki, tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak. Bu holni yuqotish maqsadida choy qoshiqcha olib uni stol ustiga har ikkala buyum oralig'idagi masofaga shunday holatda joylashtirish kerakki u buyumlarni bir biri bilan bog'lab pastonovkaga tugallik baxsh etsin.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya siyrak soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini

yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini ta'minlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan bekitish mumkin. Unda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi. Birinchi plandagilar ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa natyurmortning yon tomoniga suniy yoritgich quyiladi. Shunda oldindagi narsalardan yorug'soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rttib ko'zga tashlanadi. Sirlari yaqqol ko'rinadi, ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama qarshilik yana ham mayinlashadi. Ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashib ko'rinadi. Lekin natyurmort bo'yoqlarda tasvirlanadigan bo'lsa uni deraza yaqiniga kunduzgi yorug'lik nurlari bilan oldinda va bir oz yonboshdan yoritiladigan qilib qo'ygan ma'qul, chunki suniy yorug'likda ranglar (ayniqsa sariq va ko'k) o'zgarib turadi. Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi. Soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol ochiq oydin ko'rinadi. Narsalarning yaqqol ko'rinishi fon (orqa sath) uchun gazlama tanlashga ham bog'liq.

Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlamalar yaxlit, sidirg'a va nursizroq bo'lgani ma'qul. Chunki olachipor yorqin, rangli gazlama ko'zga aniq tashlanib natyurmortning o'zini ko'rishiga halaqit beradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, oqish fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa, aksincha oq narsalar ravshan ko'rinadi. Ko'pincha natyurmort tarkibiga ham oq, ham qoramtir narsalar kirganda, unga o'rtacha kulrang tusli fon tanlanadi. Bunaqa fon postanovkani yaxlitlashtirib ko'rsatib tasvirlashda qulaylik yaratadi.

Keyinchalik natyurmortga kompazitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (dropirovka) kiritiladi. Orqa fonga va predmet stoliga tushaladigan gazlamaning (chit, xolst, shoyi, baxmal, movut) harakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib qo'yish mumkin. Bunda parda, dasturxon, ro'mol, sochiqlar o'zining muayyan vazifasini bajarish holida joylashgani ma'qul. Gazlama devoridagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa, u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakladagi burma hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog'liq ko'rinishda bo'ladi lekin juda ko'p sonli va mayda bo'rmalarni tasvirlash qiyin, shuning uchun dastlabki natyurmortlarda sidirg'a, g'ijimlanmaydigan, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Yuqorida aytganlarimizdan ma'lum bo'ldiki natyurmort postanovkasini qo'yish jiddiy va ma'suliyatli ish. Yaxshi quyilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo'lmaydi. Uni old yoki yon

tomonigadi qarash nuqtalaridan ko'zatilgan mazmunli, yagona grupp bo'lib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Shunday qilib, natyurmort tuzish uchun:

- a) tema tanlash;
- b) natyurmort mavziuga mos keladigan narsalar va gazlamalar toppish;
- v) narsalarning shakli, tuzilishi toni va ranglarini hisobga olib joylashtirish;
- g) predmetlarning hajmdorligini yaqqol ko'rinadigan tarzda yoritish zarur ekan.

Shular hammasi birgalikda natyurmort kompazitsiyasi (postanovkasi) deb yuritiladi.

Natyurmortlarni asta - sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonining ko'payishi, ularning turli - tuman, rang - barang shakl va o'lchoviga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyiladigan albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi va sirtlari har xil bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Pastanovkaga shisha, chinni, metal idishlarni, turli, sidirg'a va gulli gazlamalarni, amaliy san'at asarlarini, qog'oz o'ramlari va kitoblarni kitish xilma - xil materiallarni rasmda aks ettirishni o'rganish uchun qulaylik yaratadi. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli haykalcha yoniga choynak qozon, yoki guldondagi rang - barang gullar yoniga dazmol quyib tasvirlamaydi. Masalan o'quv natyurmortiga konus shaklidagi hajmdor buyum sifatida chelak kitirilsa, uning yoniga also kitob yoki globus emas, balki supurki, karton quti yoki taxta yashik quyish o'rinli bo'ladi. Globusli natyurmortda esa to'ldiruvchi esa bir dasta kitob, shishada siyoh va hokazolar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Murakkab natyurmortlar ustida ish olib borishning o'ziga xosligi, ularning kompazitsiyani mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda, har bir narsalarning sirtini (fakturasini) tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Pastonovkaga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach, ularning och - to'qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar quyib chiqiladi. Soyalar bir yo'la narsalarning tanasida, yotiq tekislikda ustida va devorida belgilanadi. Bu esa tasvirda naturadagi kabi ton birligiga erishish va har bir narsaning o'ziga xos shakliga to'laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar shaklini aniqlashtirib borib, tonlardagi nozik farqlarni topishda yuqorida aytilgan izchillikka rioya qilish kerak. Ya'ni avval yirik shakllarni, katta qismlarni, matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so'ng esa mayda - chuyda va chakana tavsilotlarga o'tishi kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklini burttirib ko'rsatishi kerak. Shunday qilib, tasvirning hammasiga ishlov berilgach, uni natura bilan solishtirib qarash noaniq yerlarni

yana ishlash, ton jihatidan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa, uni yorqinlashtirish, aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol ko'rinib qolgan bo'lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri ham uning o'zi kabi yaxlit tassurot qoldira olish darajasiga erishmaguncha ishni shu tarzda davom ettirish kerak. Tasvirlanajak natyurmort mavzuli va qiziqarli bo'lishi, xar tomonlama yetuk va turli nuqtalardan qaraganda aniq, yaxlit hamda ciroyli ko'rinishi shart.

Uy ro'zg'or buyumlaridan ishlangan tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish

Natyurmortlarda, ko'pincha turmushda zarur bo'lgan turli buyumlar, mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atida insonning maishiy hayotini aks ettiradi.

Natyurmort namunalari azaldan ma'lum bo'lib, ularni qadimgi Misr davlatida devorlarga ishlangan suratlarda, qadimgi Yunonistonda ishlangan mozaikalarda uchratish mumkin. Xitoy san'atida esa VII asrdayoq natyurmort san'ati mustaqil janr shaklida ko'ringan. Xitoyda, ayniqsa X-XI asrlarda natyurmort san'ati keng rivoj topgan edi. U davrda ijod qilgan rassomlardan Chjao Chan, Suy Bolar ajoyib asarlar yaratganlar.

Evropada natyurmort XVI asrning oxirlariga kelib mustaqil janr sifatida shakllandi. XVII asrga kelib natyurmort janri Gollandiya va Flandriya, XVIII asrda esa Fransiya tasviriy san'atida keng tarqaldi. Bunday suratlarni "sokin hayot", "buyumlar hayoti", "turmush rang tasviri" kabi nomlar bilan atashdi. Bu terminlar ularning mazmuniga mos kelsa ham, dastlab "natyurmort" termini mustahkam o'rnanib qolgan bo'lib, bunday asarlar hamon shu nom bilan atalib kelinadi. Natyurmort asarlarini diqqat va sinchkovlik bilan o'rgangan kishi ularda ma'lum davr ijtimoiy hayotining aksini ko'radi va shu davrda yashagan odamlarning turmush tarzi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Golland rassomlaridan Piter Klassning "Yaxna go'shtlik natyurmort"ini, Yan Van Geysumning "Gullar", flamand rassomi F. Snayders mo'yqalamiga mansub "meva do'koni", "Baliq do'koni", rang-tasvir san'atining nodir ustasi fransiyalik rassom Jan - Batist - Simeon Shardenning "San'at atributlari" asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda oddiy narsalarning yuksak badiiy tasvirini ko'ramiz.

Mashhur rus rassomlari - I. Xruskiy, I. Repin, N. Kramskoy, I. Levitan, P. Konchalovskiy, I. Mashkov, A. Gerasimov, M. Sar'yan va boshqalar ona tabiatga, u yaratgan noz-ne'matlarga bo'lgan mehrlarini natyurmortda ifodalaganlar.

Respublikamizda rassomlardan S. Kolibanov, N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Elizarov,

R. Ahmedov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va A. Yunusov, A. Mirzaev kabi rassomlar etishib chiqdi.

Natyurmortlar ko'pincha chuqur falsafiy ma'noga esa bo'ladi. Atoqli mo'yqalam sohibi M. Saryan tomonidan "Ulug' Vatan urishi qatnashchilari arman jangchilariga. Gullar" natyurmortida turli- tuman dala va bog' gullari tasvirlangan. Rassom rango - rang gullardan badiiy tasavvur kuchi bilan ajoyib qimmatbaho gilam barpo qilib, uni g'olib jangchilarga taqdim etgan. Rassom urushning oxirgi yilidagi qiyinchiliklarni, hayotiy haqiqatini polotnoda g'oyat ishonarli qilib ifodalangan. Ijodkor turli go'zal bo'yoqlar vositasida qiyg'os ochilgan gullarning rang barang tovlanishini ko'tarinki ruxda tasvirlab, tomoshabinga sevinch bahsh etishiga, qalbining nozik torlariga tasir etib, zavqlantirishiga muvaffaq bo'ladi.

Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan birga, tematik suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishda ko'maklashuvchi, uni to'ldaruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ko'pincha oddiy buyumlar tilga kirib, surat mazmunini kitob sahifasi kabi osongina o'qilishiga, voqea qachon qaerda sodir bo'layotganini bilib olishga yordam beradi. Taniqli rus rassomi V.A. Serov ishlagan "Qiz va shaftolilar" suratida qo'lida shaftoli tutgan yoqimtoy qizcha tasvirlangan. U hashamatli xonadagi stol yonida xotirjam o'tiribdi, stol ustidagi oppoq dasturxonda bir nechta shaftoli mevasi va barglar yotibdi. Xushchaqchaq qizning sho'xchan nigohi tomoshabinga qaratilgan. Lablaridagi engil tabassumdan ko'rinib turibdiki, u hayotdan mamnun, baxtiyor. Qizchanning pushti rang harir ko'ylagida, xona devorlarida, derazadan ko'rinib turgan daraxtlarning barglarida, stol ustidagi mevalarda quyosh nurlari tovlanib, jilvalanib turibdi. Katta mahorat bilan ishlangan bu polotnoga nazar tashlar ekanmiz, insonni o'rab turgan narsalarning latofatini va ko'rkini chuqur his etamiz.

Alohida mazmunli natyurmort asari yaratish haqidagi fikr rassom xayolida uzoq vaqt davom etgan kuzatishlar yoki biror narsadan qattiq ta'sirlanish oqibatida to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Lekin har ikkala holda ham ijodkorning ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi va unga mos narsalar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi va shu eskizlar asosida kompozisiya tuzadi.

Mustaqillik yillarida ijod qilgan rassom istedadli mo'yqalam ustasi, rangtasvirda ko'plab asarlar yaratganligi bilan ajralib turadigan ustoz pedagog professor G'ofir Abdurxmonovdir. U kishi tasviriy san'atining ko'pgina janrlariga dadil murojat qila olgan. Rassom ayniqsa mavzuli kompozisiyalar ishlashda manzara , natyurmort, portret janrlarida samarali ijod qiladi. G'ofir Abduraxmonov asarlarini kuzatsangiz undagi go'zal ko'rinishlar nozik chizgilar, rassomning naqadar nafis didli ekanligidan dalolatdir. Sharqimizning chiroyli tabiati,

sof havosi, yeri, sarviqor tog'lari, ser meva bo'g'lari, usimligi, hayvonot dunyosi, qo'yinki barcha-barchasi inson qalbiga shunchalik yaqin. Rassom G'ofir Abdurahmonovning asarlaridan "Baqqol" deb nomlangan natyurmort asarini badiiy tahlil qilinsa qo'yudagicha ta'riflash mumkin. Rassomning "Baqqol" asarini tomosha qilar ekansiz be ixtiyor turli hayollar olamiga chumasiz. Tasvirda aks etgan buyumlarni birma – bir ko'zdan kechirar ekansiz, qandaydir ko'nglingizda mayin ilqlik sezasiz. Qalban yuzingizga tabbasum yugurganday bo'ladi. Asar sizni huddi o'zi bilan so'zlashishga chorlayotgandek tuyiladi. Kompozisiya jihatidan murakkab tuzilgan bu natyurmortda uy ro'zg'or buyumlari, mevalar, rangli matolar ranglar orqali jonli ifodalangan. Natyurmortning orqa ko'rinishida milliy mis ko'za, uning yuqori qismida qovun hamda kartinaning chap tomonini o'rta qismida yana bir qovun tasvirlari joylashgan. Bu uchala predmetni rassom shunday joylashtirganki, natyurmort tuzish qoidalaridan mohirona foydalanilgani yaqqol ko'rinish turibdi. Natyurmortning oldi qismida tarozi va uning toshlari joylashishi, mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, natyurmortda sopol idishga solingan turli xil mevalar hamda uy ro'zg'or buyumlari ko'rinish turibdi. O'tmishimizni eslatuvchi jundan to'qilgan milliy ko'rinishli gilam ham o'z o'rnida joylashtirilgan. Asarning kompozisiya jihatidan mukammaldir. Rassom G'. Abdurahmonov "Baqqol" natyurmortini rangtasvirda ifoda etib, undagi buyumlar shaklini, materialligini, yorug' - soyalarni, tekisliklarni aniq ko'rsatib bera olgan. Asarning haqoniyligi har bir predmetga nazar solinsa, go'yoki ularni qo'lingiz bilan ushlab ko'rishigiz mumkindek bo'ladi. Chunki, undagi barcha narsalar tasviri bo'yoqlar yordamida asli kabi tabiiy tasvirlangan. "Boqqol" natyurmortini zo'r mahorat bilan tasvirlangan asar deb hisoblanadi. Asarni tahlil qilar ekanmiz ayniqsa mis ko'zaning orqa tomonida, xiyol ko'rinmas qilib tasvirlangan piyolaga, e'tibor berib qaralsa kishi diqqatini tortadi. Natyurmortda tashqi tamoni qizil rangda ifodalangan piyola, atayin natyurmortni qiziqarli chiqishi uchun bir oz ko'rinmas qilib joylashtirilganligi, yoki piyolani to'liq ko'rinadigan qilib tasvirlasa ham bo'lar edi degan savol beixiyor yodga keladi. O'z - o'zidan ko'rinish turibdiki "Baqqol" natyurmorti kishini fikrlashga, o'ylashga, shuningdek, tomosha qilishga chorlaydi. Kishilar badiiy estetik didini shakllanishiga, xizmat qiladi.

Rassom Abdurahmonovning mustaqillik yillarida yaratgan asarlarini, erishgan yutuqlarini takidlab "SAN'AT" jurnalining 3/2012-sonida "An'analar davomchi" nomli maqolasida Urimbay Nurtayev shunday yozadi. "2001 yilda G. Abdurahmonov, V. Akudin, M. Ahmedov, M. Sodiqov, Yu. Chernishev, Ya. Salpinkidi, I. Bahromov, I. Shin, D. Mursalimov singari O'zbekistonning taniqli rassomlari bilan birga "Oqtosh" ijod uyida ijodiy safarda bo'ldi. Uning ushanda yaratgan Oqtosh vodiysi va tog choqqilari tasvirlangan rangtasvir asarlar

turkumida haqiqiy o'ziga xos uslubi namoyon bo'ldi. "Oqtosh. Chashma oqmoqda", "Oqtosh. Tong", "Tun", "Oqtoshda kuz", "Oqtosh. Sukunat" - ushbu kartinalar koloristik gammasi jixatidan ham, kompozision tuzilishiga ko'ra ham juda ajoyibdir.

G'. Abduraxmonovning zamonaviy manzaralarida Xumson va G'ilonning tog chuqqilari, ilonizi yullar, bahorda gullagan boglar, kuzgi daraxtlarning oltin rang shox va yaproqlari tasvirlanadi. Ular juda hayotiy aks ettiriliganidan xuddi ko'rib turganday bo'lasan kishi. Ularda ranglar qalashtirib tashlanmagan. Shu boisdan tomoshabinning nigohi go'yo bo'yoqlarning yupqa surtmasidan o'tib, voqeylikning poyonsiz sarhadiga singib ketadi". Mana shunday ijodkor rassomlarni, ularning asarlarini juda ko'plab keltrishimiz mumkin. O'zbekiston halq rassomi O'ral Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Tog' oqshomi", "Mening qo'shig'im". Malik Nabiyeovning "Beruniy", "Amir Temur", "Bobur", "Spitamen qo'zg'oloni". Abdulhaq Abdullayevning "Shahlo", "Buvi va nevara", "Malika", "Lola", "Xumsonlik ayol". Haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodovning "Qiz bola", "Ayol haykali", "Qaraqalpoq qizi", "Kelinchak", "Barno". Laylo Salimjonovaning "Soy boyida", "Oq tosh", "Varrag", "Oq gullar". Haykaltarosh Ilhom Jabborovning "Amir Temur", "Al Farg'oniy", "Jaloliddin Manguberdi". Bahodir Jalolovning "Tog' qishlogi", "So'qmoq", "Ibn Sino". Alisher Mirzayevning "Toshkent – tinchlik va do'stlik shahri", "Bolaxonada", "Intizorlik". Akmal Ikromjonov "Orol mening dardim", "Chaqmoq", "Darvesh", "Guldonli Natyurmort" va shu kabi boshqa ko'plab misollar keltrishimiz mumkin. Rassomlar tamonidan yaratilgan bu kabi asarlarning har biri kishi qalbida hayojon o'yg'otadi. Kishini go'zallikga chorlab, uning estetik dunyo qarashini shakllanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.



G'. Abdurahmonov. "Boqqol" natyurmorti.

HULOSA

Kelajak yoshlarni komil, sog'lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, Vatanga, halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida tasviriy san'at fanining ham o'z o'rnini bor. Insoniyat azaldan go'zallikka intilib yashaydi. Go'zallik har qanday yaxshilik sari olib boradi. Tasviriy san'at inson aql idrokining kengaytrib uning tevarak atrof munosabatini ustiradi. U iqtidorli va estedotli yoshlarni shakllanuvini uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Tarixiga, milliy urf odatlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi va uni ulug'laydi. Shuningdek yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida ham yordam beradi. Shunday ekan tasviriy san'atda asarlarini kuzatar ekansiz beixtiyor ko'z odingizga jonajon o'lkamiz tabiat ko'rinishini ijod qilgan ajoyib mo'yqalam ustalari ishi bilan g'ururlanamiz, haykaltaroshlar, me'morlarning yaratgan asarlari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bunyod etilgan qurulishlar el ravnaqidir.

Keyingi yillarda respublikamizda tasviriy san'atining tur va janrlari yanada rivojlanmoqda. Shunday o'zarishlarni natyurmort janrida ham ko'rishimiz mumkin. Yoshlarni estetik dunyo qarashini shakllanishida, mahorat bilan yaratilgan tasviriy san'at asarlarining o'rnini nihoyatda kattadir. Rassom asarlarini kuzatish bilan birgalikda, badiiy tahlil qilishning ham ahamiyati beqiyos. Birgina natyurmort yoki manzara janrida maromiga yetkazib ishlangan san'at asarini kishi rohiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etishini so'z bilan ifoda etish qiyin. Albatta har – bir tasviriy san'at asarini ko'z bilan ko'rib, qalb bilan sezish, his etish kerak. Tasviriy san'at asarlari va ijodkorlari bilan yaqindan tanishish maqsadida rassomlarning ustaxonalariga, ularning ko'rgazmalari tashkil etilgan joylarga, mu'zeylarga, ota-bobolarimiz tamonidan bunyod etilgan tarixiy me'morchilik obidalariga, sayohat qilish kerak. Mustaqillik davri O'zbekistonda bunyod etilgan zamonaviy me'morchilik binolarini tamosha qilishning ham ahamiyati kattadir. Keyingi vaqtlarda bunyod bo'lgan tasviriy, amaliy san'at asarlari, mohobatli haykallar, me'moriy qurilishlar davlatimizni g'ururi hisoblanadi. Halqimiz shu qisqa vaqt ichida o'lgan bunyodkorlikni namoyon etdi. Bularni ko'rib dil quvnaydi. Bunyodkor xalqning ishlaridan qalb g'urur va iftihorga to'ladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008.
2. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa uyi.2009.
3. Norsayid Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.T. "O'qituvchi", 1997.
4. M. Nabiyev "Rangshunoslik" T. O'qituvchi 1995 y
5. N. Oydinov "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" T. O'qituvchi 1997 y
6. 6. B. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi" T. O'qituvchi 1984 y
7. R. Xasanov "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" T. Fan. 2004
8. S.S.Bo'latov "Rangshunoslik" O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti T. 2009 y
10. B. Boymetov. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san'at to'garagi T. 1995 y
11. S. Uralov "Mo'jiza yaratish san'ati" T. Mehnat 1996 y
12. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
13. B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006
14. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996
15. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009
16. D. A. Nazilov. Kompozitsiya asoslari. T., "Yangi asr avlodi", 2009
17. "SAN'AT" O'zbekiston badiiy akademiyasi jurnali. 3/ 2012
18. [www. tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
19. www. pedagog.uz
20. www. Ziyonet.uz
21. www. nbgf.intal.uz
22. tdpu-INTERNET. Ped www.nbgf.